



GAYMORIT KASALIGI

Abdulxayeva Madinabonu Muxammadjon qizi

Central Asian Medical Universiy xalqaro tibbiyot universiteti
1-bosqich talabasi.

Ilmiy raxbar: Parpiyeva Odinaxon Raxmanovna

Central Asian Medical Universiy xalqaro tibbiyot universiteti
dotsent v.b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14294268>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 29-noyabr 2024 yil

Ma'qullandi: 1-dekabr 2024 yil

Nashr qilindi: 7-dekabr 2024 yil

gaymorit, sinus bo'shliqlar,

allergiya, gaymorotomiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada gaymorit kasalligi, uning kelib chiqish sabablari, turlari, davolash hamda oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kunlar sohib ketishi natijasida mavsumiy kasalliklar xavfi oshib bormoqda. Ko'pincha sochimizni yaxshi quritmasdan ko'chaga, ishga va o'qishga shoshamiz. Bu esa yuqori nafas yo'llarini shamollashiga olib keladi.

Gaymorit – burun yon (yuqori jag' bo'shlig'i) sinus shilliq qavatining yallig'lanishi bilan ifodalanadigan kasallik, sinusitning bir turi sanaladi va eng keng tarqalgan kasallik hisoblanadi. Kasallik kechish og'irligiga qarab, **o'tkir** yoki **surunkali** bo'lishi mumkin. Kasallik erta tashxislansa va jiddiy shakllarga o'tmagan bo'lsa, ko'p hollarda gaymoritni uyda davolash usuli ham samarali hisoblanadi.

Yuqori jag' yoxud burun yon sinuslari – havoli bo'shliqlar bo'lib, ularning vazifasi atmosfera va miyya ichi bosimini tenglashtirish, rezonator funktsiyalarni bajarish va havoni tozalash, namlash sanaladi. Burun yon bo'shliqlarining yo'llari burun bo'shlig'iga chiqadi, ichida esa suyakka birikib turgan shilliq qavat bilan qoplangan bo'ladi. O'sha shilliq qavatning yallig'lanishi gaymorit kasalligi sanaladi.

Ko'pincha gaymorit kasalligining asosiy sababi yuqori nafas yo'llari infeksiyasi yoki allergiya bo'ladi, shu sababli kuz-qish mavsumida bu kasallik rivojlanishi avj oladi. Bundan tashqari, ba'zi bir kasalliklarni davolamaslik, zararli tashqi omillar ham gaymoritni keltirib chiqarishi mumkin, jumladan:

- Yuqori jag' tishlari kariesi;
- Immun tizimining zaiflashuvi;
- Burun yon sinuslarini o'rab turuvchi shilliq qavat jarohatlari;
- Havosi haddan tashqari quruq yoki yelvizak bo'lgan xonada uzoq vaqt bo'lish;
- Og'iz bo'shlig'i gigienasiga rioya qilmaslik;
- Shilliq qavatning zamburug'li kasalliklari;
- Bekteriyalar (stafillokokklar);
- Sil kasalligi;
- Burun-halqum rivojlanishi anomaliyalari va uning shikastlanishlari;
- O'smalar mavjudligi;
- Burun bitishiga qarshi tomchilarni tez-tez ishlatish;
- Rinit bilan kechuvchi allergik reaksiyalar;

➤ Burun to'sig'ining deformatsiyasi (qiyshayishi) va natijada sinusda havo aylanishining buzilishi;

➤ Surunkali infeksiyalar: faringit, tonzillit va h.k.

Gaymoritning dastlabki belgilari tana haroratining ko'tarilishi, isitma, kuchsizlik, tumov va burun bitishi, yuz sohasida og'riqlar bilan namoyon bo'ladi. Og'riq peshona, jag' va chakkaga tarqalish xususiyatiga ega. Bundan tashqari, qovoqlarning qizarishi va shishishi qayd qilinishi mumkin. Bolalarda gaymorit bo'lganda ularning injiqlik qilishi va charchaganligi ham seziladi. Shu bilan birga, gaymorit qanday rivojlanishiga qarab, kasallik alomatlari ham farqlanishi mumkin.

O'tkir gaymorit O'RVI belgilari fonida rivojlanadi va quyidagi alomatlar bilan ifodalanadi: isitma, bo'g'imlardagi og'riqlar, yuqori jag' va burun sohasidagi og'riq, kuchli tumov, bosh og'rig'i, ko'z sohasidagi og'riqlar.

Surunkali gaymorit esa asta-sekin rivojlanadi va quyidagi alomatlar kuzatiladi: davomli kechayotgan rinit, ko'z soqqasidagi og'riqlar, konyuktivit, ko'pincha bosh og'rig'i.

Bugungi kunda shifokorlar gaymorit kasalligining quyidagi turlarini ajratishadi:

Kataral gaymorit. Kasallik shilliq qavatning yallig'lanishi, burun bo'shlig'ining shishishi va qizarishi bilan tavsiflanadi. Kataral gaymorit bolalar orasida ko'proq tarqalgan. Sabablari virusli infeksiyalar, allergik tumov va burun shilliq qavatining jarohatlari hisoblanadi. Xarakterli alomatlari ishtaxa yo'qolishi, isitma va umumiy intoksikatsiya belgilari sanaladi.

Ikki tomonlama gaymorit. Yuqori jag' sinuslarining yallig'lanishi asoratlanishida ko'proq uchraydi. Uning yorqin belgilaridan shish, burundan ko'p ajralma kelishi, burun bitishi, tana haroratining ko'tarilishi, umumiy intoksikatsiya, shuningdek ko'zlarning yoshlanishi va apatik holatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Kasallikning ushbu turi rivojlanishiga infeksiyon va yallig'lanish jarayonlari sabab bo'lishi mumkin. Ikki tomonlama gaymoritga shubha qilinganda otolaringolog kompleks davolash (dori vositalari va fizioterapiya) muolajalarini buyuradi.

Allergik gaymorit. Buning sababi burun sinuslarining ta'sirlanishi hisoblanadi. Uning alomatlari ko'z yoshlanishi, shishganlik, tana harorati ko'tarilishi, bosh og'riqlari va umumiy holsizlikdir. Kasallik asosan kuz va bahor oylarida kuzatiladi. Allergik gaymoritni davolash uchun dastavval allergenni aniqlash va u bilan bemorning aloqa qilishini cheklash kerak. Davolovchi shifokor to'liq tekshiruv o'tkazishi natijasida anti-allergen terapiya, so'ng umumiy qo'llab-quvvatlovchi preparatlar buyuradi.

Yiringli gaymorit. Ko'pincha yuqori nafas yo'llarining davolanmagan yoki o'tkazib yuborilgan infeksiyon kasalliklari oqibati hisoblanadi. Ushbu turdagi gaymorit sababchilari patogen mikroorganizmlar va ularning hayotiy faoliyati mahsulotlari sanaladi. Agar kasallikning yiringli turiga yetarli e'tibor qaratilmasa va uni davolash ortga surilsa, u suyaklar va yaqin atrofdagi to'qima va a'zolarga tarqalishi mumkin.

Odontogen gaymorit. Qo'zg'atuvchining kasallangan yuqori jag' tishlari va og'iz bo'shlig'idan burun yon bo'shliqlariga o'tishi oqibatida rivojlanadi. Qo'zg'atuvchilari ichak tayoqchasi, stafilokokklar, streptokokklar va ularning kombinatsiyasi sanaladi. Odontogen gaymoritning perforativ va noperforativ shakllari ham farqlanadi. Birinchisi yuqori jag' tishini sug'urish natijasida og'iz bo'shlig'i va yuqori jag' sinuslari orasida fissura hosil bo'lishida kuzatiladi. Aynan shu fissura orqali patogenlar sinuslarga yetib boradi.

Bundan tashqari, gaymorit infeksiyon, vazomotor, ekssudativ, produktiv, nekrotik va atrofik bolishi mumkin.

Gaymorit kasalligini davolash: Ayni paytda gaymoritni davolashning ko'p usullari mavjud, lekin qay darajada samarali ekanligi haligacha noma'lum. Gaymoritni davolash usullari: antibiotiklar, shilliq ajralishini sekinlashtiruvchilar; burun bo'shliqlarini yuvish; burun bo'shliqlarini teshish; gaymorotomiya (bo'shliqlarni tozalash uchun o'tkaziladi).

Jarrohlik amaliyoti: Gaymorotomiya – og'ir hollarda gaymor bo'shlig'ini sanatsiya qilish va yiringli massadan, poliplardan, zamburug' va boshqa infeksiyalardan tozalash uchun qo'llaniladi. Bu amaliyot o'ta samarali, murakkab emas va ortiqcha asoratlar qoldirmaydi.

Statistik ma'lumotlar gaymoritni xalq tabobati yordamida davolashda samaradorlik foizi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ko'p tomchilar, damlamalar va malhamlar retseptlari mavjud va ular gaymorit davosi hisoblanadi. Shu bilan birga, ular asosiy terapiya usuli emas va faqatgina kompleks terapiya sifatida qo'llanilishi mumkin. Bemorda allergiya chaqirishi mumkin bo'lgan mahsulotlardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Agar kasallik avj olib borayotgan va alomatlari kuchayib borayotgan bo'lsa, shifokorga tashrif buyurishni kechgacha qoldirmang, xalq tabobati faqat o'rta va yengil hollarda samara berishi mumkin.

Propolis bilan ingalyatsiya. Idishda 2 litr suvni qaynating. Qaynagan suvga propolisni spirtli eritmasidan ikki choy qoshiq qo'shing (dorixonalarda shifokor retseptisiz beriladi). Idish ustiga egilib, boshingizni sochiq bilan idishni qo'shgan holda yoping va bug'dan nafas oling. Agar asalarichilik mahsulotlariga allergik reaksiyangiz bo'lsa, u holda bu usuldan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Kartoshka bilan ingalyatsiya. Bu usulda yangi qaynatilgan kartoshkaning bug'lari bilan nafas olinadi. Davomiyligi 15 daqiqani tashkil etadi.

Asal asosida tomchi. Miqdori teng bo'lgan asal va aloe sharbatini aralashtiring. Biroz suv qo'shing va kuniga 2-3 marta 1-2 tomchidan burunga tomizing (ikki tomonlama). Qarshi ko'rsatmalar yuqoridagi kabi.

Bundan tashqari chakanda (oblepixa) moyi; lavr yaproqlari yordamida kompresslardan foydalanish mumkin.

Har qanday kasallikni davolagandan ko'ra oldini olish afzalroq. Gaymoritni oldini olish uchun o'z vaqitda stomatolog ko'rigidan o'tib turish, sovuq havoda ko'p yurmaslik, sovuqda bosh kiyimisiz ko'chaga chiqmaslik, shamollash va grippni o'z vaqtida davolash tavsiya etiladi. Sport bilan hech bo'lmaganda kuniga 10-20 daqiqa shug'ullanish immunitetni mustahkamlash uchun foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лопатин А.С., Быкова В.П., Арцыбашева М.В. Современные принципы диагностики и лечения хоанальных полипов // Вестник оториноларингологии. - 1997. - № 1. - С. 8-12.
2. Лопатин А.С., Пискунов Г.З., Горячкина Л.А. и др. Ведение пред- и послеоперационного периодов при функциональных внутриносковых хирургических вмешательствах: Учебное пособие. - М., 1998. - 12 с.
3. Пальчун В.Т. Противоречивая лечебная тактика при ряде основных заболеваний ЛОР-органов (опыт ЛОР-клиники РГМУ) // Вестник оториноларингологии. Материалы Российской конференции оториноларингологов (19- 20 ноября 2002). - М., 2002. - С. 16-22.
4. Пискунов С.З. О хирургическом лечении хоанальных полипов // Труды XV съезда оториноларингологов России. - СПб., 1995. - Т. 2. - С. 87-90.